

BIOLOGIYA DARSLARIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186165>

Xashimova Xadika Tolkunovna

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"
kafedrasi mudiri, e-mail: xoshimovaxadiqaxon@gmail.com,
telefon: +998-99-367-97-29

Annotatsiya

Ushbu maqola biologiya darslarida o'quvchilarda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Unda biologiya darslarida o'quvchilarda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yo'llari misollar orqali bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *guruhiy tadqiqot, hamkorlik, kichik guruhlarda ishlash, ko'nikma, kompetensiya, mozaika, muammo, muloqot, o'ylash-juftlikda ishlash-bo'lishish, o'zaro o'qitish.*

Annotation

This article is devoted to the issues of forming students' communication skills through the use of collaborative learning technologies in biology lessons. In it, using examples, the ways of using collaborative learning technologies in the formation and development of communication skills in students in biology lessons are described.

Keywords: *group research, collaboration, working in small groups, skill, competence, mosaic, problem, communication, thinking-working in pairs-sharing, mutual learning.*

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам формирования коммуникативных навыков у учащихся посредством использования технологий совместного обучения на уроках биологии. В ней на примерах изложены способы использования технологий совместного обучения в формировании и развитии коммуникативных навыков учащихся на уроках биологии.

Ключевые слова: *групповое исследование, сотрудничество, работа в малых группах, навык, компетенция, мозаика, проблема, общение, мышление-работа в парах-делиться, взаимное обучение.*

KIRISH

Tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni bugungi kunda tubdan yangilanmoqda. Bu yangilanishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarda nazariya bilan birga amaliy faoliyatini rivojlantirish, ilmiy mushohada yuritish, tahlil qilish, tajriba o'tkazish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni mustahkamlashdir. Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar aynan shu jarayonni sifatli tashkil qilish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini tarkib toptirish mumkin.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, ularning muammolarning turli yechimlarini topish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, ulara hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur texnologiya orqali o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlash, muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kungi o'zining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur". Bu ezgu g'oya ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha fan o'qituvchilariga, jumladan biologiya fani o'qituvchilariga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

O'zbek olimlari O.Tolipov, M.Usmonboyeva, N. Azizxodjayevalarning ilmiy asarlarida o'qituvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni qaror toptirish, xususiy fanlar asoslarini o'qitishga yonaltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati ekanligi bayon qilingan. Shuningdek, uar tomonidan o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Taniqli olimlar J.Yo'ldoshev, M.Ochilov, N.Saydaxmedov, N.Muslimov, D.Fayzullayeva, J.Tolipovalarning ilmiy asarlarida pedagogik texnologiya asoslari, pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash masalalari batafsil yoritilgan. Rus olimlari V.M.Monaxov, V.V.Arnautov, M.V.Klarin, G.K.Selevko asarlarida o'quv jarayonlarini optimallashtirish, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, ta'limda zamonaviy yondashuvlar, pedagogik texnologiya metodologiyasi masalalari keng yoritilgan. Ularda ilgari surilgan g'oyalar o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, muloqot qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu maqola hamkorlikda o'qitish texnologiyasi orqali o'quvchilarda tandiqidiy fikrlash, muloqot qilish va jamoada ishlash kabi hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga bag'ishlangan.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari – o'quvchilarni birgalikda o'rganish va muammolarni hal qilish jarayonlariga jalb qiluvchi pedagogik yondashuv. Bu usul biologiya darslarida o'quvchilarni faolligini oshirish va bu orqali ular tomonidan mavzularning chuqurroq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalarining mazmuni shundan iboratki, ular orqali o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog - ta'lim oluvchi(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishi ta'minlanadi. Bunda o'qituvchi juftliklardagi, guruhli va jamoaviy faoliyat orqali o'quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi. O'quvchilar o'rtasida o'zaro bilim almashinuvi kuzatiladi. Har bir o'quvchi o'z bilimlarini jamoa bilan bo'lishadi va yangi bilimlarni boshqalardan o'rganadi. Juftliklarda ishlash, guruhli va jamoaviy faoliyat orqali o'quvchilarda muloqot, mas'uliyat, vaqtni boshqarish va muammolarni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Quyida o'quvchilarda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda ayrim hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yo'llari misollar orqali bayon qilinadi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Mozaika metodi. Bu metodni qo'llashda dastlab o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh a'zosiga dars mavzusining alohida qismi beriladi. Keyin har bir o'quvchi o'z qismiga oid ma'lumotlarni o'rganib, guruhiga tushuntiradi. Masalan "O'simlik hujayralarining tuzilishi" mavzusini o'rganishda har bir guruh a'zosiga hujayraning qismlari: hujayra devori, xloroplast, vakuola bo'lib beriladi. Guruh a'zolari o'z qismiga oid ma'lumotlarni o'rganib, bir-birlariga tushuntirishadi. Natijada o'quvchilar qisqa vaqt ichida o'simlik hujayralarining tuzilishi haqidagi barcha ma'lumotlarni o'zlashtirib oladilar.

O'ylash-juftlikda ishlash-bo'lishish metodi. Bu metod orqali o'quvchilarga biror masala yoki savolni avval o'zlari o'ylab ko'rish, keyin esa juftlikda muhokama qilish, so'ngra fikrlarni butun sinf bilan bo'lishish imkoniyati beriladi. Misol uchun "Fotosintez" mavzusini o'rganishda fotosintez qanday jarayon va bu jarayon nima uchun muhim degan muammoli savol o'quvchilarga berilganda har bir o'quvchi avval o'zi savolning javobini o'ylab topadi, keyin juftlikda sherigi bilan muhokama qilib, so'ngra umumlashgan javobni sinf bilan bo'lishadi.

Guruhiy tadqiqot usulida guruhlar tadqiqot loyhasini bajaradi. Ular mavzu bo'yicha tadqiqot o'tkazib, uning natijalarini taqdim etadilar. Masalan "Ekotizimlar va oziq zanjiri" mavzusida guruhlar o'zlari tanlagan ekotizim bo'yicha oziq zanjirini o'rganib, uning muvozanatini saqlash muhimligini tushuntirishadi.

O'zaro o'qitish metodida o'quvchilar bir-birlariga dars o'tadi. Bu esa mavzuni chuqurroq o'rganish va boshqalarga tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu usulda har bir guruh o'z bo'limini o'rganib, uni boshqa guruhlariga tushuntiradi. Misol uchun guruhlariga hayvonlar klassifikatsiyasining bittadan bo'limi berilishi mumkin: sutemizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar.

Yuqorida nomlari keltirilgan hamkorlikda o'qitish texnologiyalari quyidagi afzalliklarni beradi:

- o'quvchilar mavzularni juftliklarda, kichik guruhlarda va jamoada muloqot qilish orqali bilimlarni mustahkamlaydilar va mavzuni chuqur o'zlashtiradilar;
- har bir o'quvchini jarayonga jalb etish orqali ularning faolliklari oshadi;
- o'quvchilar yangi fikrlarni ishlab chiqadilar, bu jarayon ularning mavzuga nisbatan ijodiy yondashuvlarini oshiradi.

XULOSA

Yuqoridagi hamkorlikda o'qitish texnologiyalari o'quvchilarga darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o'z fikrini erkin bayon etish, asoslash va isbotlash, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish, o'quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish imkoniyatini beradi, o'quv jarayonida ongli intizomni vujudga keltirishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, darslarda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanilganda o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qilish orqali o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajaradilar, bilimlarni birgalikda o'zlashtiradilar va rivojlanadilar. Natijada o'quvchilar faolligi oshiriladi, ularda muloqot ko'nikmalari shakllanib va rivojlanib boradi, o'qituvchi esa shu orqali o'quv-tarbiyaviy maqsadiga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, 272-son.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022 – 2026 - yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni.

4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 163 b.

5. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 160 b.

6. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. – T.: Bilim, 2004. – 160 b.

7. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. – T.: O'qituvchi. 2004.

8. Арнаутов В.В., Монахов В.М. Оптимизация учебного процесса. – Москва: Михайловка МЦОП, 1997.